

SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANI ICHKI ISHLAR BO'LIMI RAHBAR KADRLAR FAOLIYATI TARIXIDAN

Sodiqov Mirsharif Sa'dullayevich

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

mirsharifsodiqov85@gmail.com

<https://orcid.org/0007-0006-2503-569X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Maqolada Surxondaryo viloyati Sherobod tumani ichki ishlar bo'limining tashkil etilishi va bu tizimda fidokorona xizmat qilgan rahbarlar faoliyati tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, XX asrning turli davrlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, jumladan, Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi davrlarda huquq-tartibot organlarining xalq osoyishtaligini ta'minlashdagi roli tahlil qilingan. Tuman IIB moddiy-texnik bazasining shakllanishi va kadrlar salohiyatini oshirishga hissa qo'shgan polkovnik Abdusamad Bozorboyev, Abduhamid Tog'aliyev va boshqa rahbarlarning hayot yo'li misolida soha rivoji ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Sherobod tumani, Ichki ishlar bo'limi, militsiya tarixi, Surxondaryo, huquq-tartibot, jinoyatchilikka qarshi kurash.

Аннотация: В статье на основе исторических источников освещается история создания отдела внутренних дел Шерабадского района Сурхандарьинской области и деятельность руководителей, самоотверженно работавших в этой системе. Также анализируется общественно-политическая ситуация в различные периоды XX века, в том числе роль правоохранительных органов в обеспечении общественного спокойствия в годы Второй мировой войны и в послевоенный период. Развитие сферы показано на примере жизненного пути полковников Абдусамада Бозорбоева, Абдухамида Тогалиева и других руководителей, внесших вклад в формирование материально-технической базы и повышение кадрового потенциала районного ОВД.

Ключевые слова: Шерабадский район, отдел внутренних дел, история милиции,

Сурхандарья, правопорядок, борьба с преступностью.

Abstract: Based on historical sources, the article highlights the establishment of the Sherobod District Internal Affairs Department of the Surxondaryo region and the activities of its dedicated leaders. It also analyzes the socio-political situation during various periods of the 20th century, including the role of law enforcement agencies in ensuring public peace during World War II and the post-war era. The development of the sector is illustrated through the careers of Colonel Abdusamad Bozorboyev, Abduhamid Tog'aliyev, and other leaders who contributed significantly to the formation of the department's material and technical base and the enhancement of personnel potential.

Keywords: Sherobod district, Department of Internal Affairs, history of the police, Surxondaryo, law and order, fight against crime.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida ichki ishlar organlari faoliyatini isloh qilish, sohani xalqchil tuzilmaga aylantirish va xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyoti bevosita shu yurtda qonun ustuvorligi va jamoat tartibining qay darajada ta'minlanganligi bilan o'lchanadi. Bu borada Surxondaryo viloyati, xususan, Sherobod tumani ichki ishlar bo'limining bosib o'tgan tarixiy yo'li, shakllanish bosqichlari va unda xizmat qilgan rahbar kadrlar faoliyatini o'rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Sherobod tumani o'zining qadimiy tarixi,

strategik joylashuvi va o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi bilan ajralib turadi. XX asrning boshlaridan to bugungi kunga qadar hududda osoyishtalikni saqlash vazifasi turli mafkuraviy va siyosiy tuzumlar davrida o'ziga xos qiyinchiliklar bilan kechdi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, unda tuman IIB tarixiga oid ilgari keng jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan arxiv ma'lumotlari, shuningdek, soha rivojiga ulkan hissa qo'shgan polkovnik Abdusamad Bozorboyev, Abduhamid Tog'aliyev kabi rahbarlarning shaxsiy namuna va kasbiy mahorati tahlil qilinadi.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). 1922-1924-yillarda Qoraboy Toshmuhammedov va 1925-1926-yillarda Qiyom Xo'jayev Sherobod tuman IIB boshlig'i lavozimlarida ishlab shundan so'ng, 1926-1929-yillarda Abdurahmon Xayrullin tuman IIB boshlig'i lavozimida faoliyat yuritib, fidoyilik namunasini ko'rsatgan.

Sherobod xalqi ham XIX asrdagi Chor Rossiyasi zulmini, inqilobdan keyingi Sho'rolar hukumati qirg'in – barotini, kollektivlashtirishning zug'umlarini, qatag'on davri qiyinchiliklarini boshidan o'tkazgan xalqdir. Qancha – qancha xalq o'g'lonlari qirib tashlandi. Milliy ozodlik uchun kurashganlarning bo'yniga “Bosmachi” tamg'asini bosdilar[4]. Lekin, zamon qanday bo'lishidan qat'iy nazar Sherobodliklar o'z yurtining taraqqiyoti, xalq farovonligi, uchun jonini jabborga berib mehnat qildilar. Mehnatiga yarasha haq olmasalar-da xalq xo'jaligi va qishloq xo'jaligining barcha sohalarida, hunarmandchilik, chorvachilik, parrandachilik boshqa oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga munosib hissalarini qo'shib keldi.

Ikkinchi jahon urushida ayniqsa, ularning fidoyiligi yaqqol ko'zga tashlandi. “Hamma narsa front uchun” shioriga amal qilib frontga katta yordam berdilar. Frontorti ishlarida faol bo'ldilar.

1941-yil 6-mart kuni tarix zarvaraqlariga oltin harflar bilan yozib qoldirildi. Shu kuni maxsus Farmon bilan Surxondaryo viloyati tuzilganligi e'lon qilindi. Viloyat markazi Farmonda ko'rsatilishicha, Termiz shahri qilib belgilandi[4].

1940-50 yillarda militsiya faolligi yanada yaxshilandi. Fidoyi xodimlar sodir etilgan jinoyatlarni vaqtida fosh eta bordi. 1949-yilga kelib militsiya hayotida o'zgarish bo'ldi. Militsiya davlat xavfsizligi xizmati tarkibida faoliyat yurita boshladi. Bu bilan ularning faoliyati yanada kengaydi. Chunonchi. Militsiya xodimlari o'z xizmat hududida sodir bo'lgan har bir hodisani bilishlari, jamoat tartibini saqlash, jinoyatlarning oldini olish, jinoyat sodir bo'lganda uni surishtirib, aniqlash, jamoatchilik bilan aloqa qilib turishlari, fuqarolarni qabul qilib, ularning ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish va muammolarini hal qilish, fuqarolarning pasport-viza rejimiga rioya qilishlarini qat'iy tekshirib turishlari kabi vazifalarni bajarishlari belgilab qo'yildi. O'sha yillarda IIB boshlig'i hamda o'rinbosarlari lavozimida oqilona faoliyat yuritib, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquq tartibotni mustahkamlashda fidoyilik namunalarini ko'rsatgan 1929-1930-yillarda Quvvatali Ashuraliyev, militsiya polkovnigi Lutfullo Ibrohimov (1948-yilgacha), podpolkovnik Salom Jumayev (1955-1957-yillar), polkovnik Abdusamad Bozorboyev (1957-1959-yillar), podpolkovnik Shodi Mirzayev (1959-1961-yillar) singarilar nomlarini Sherobodliklar ehtirom bilan eslashadi[3].

Abdusamad Bozorboyev[1:70]ning nomi doimo alohida tilga olinadi, polkovnigi Abdusamad Bozorboyev 1927-yil 9-mayda Toshkent viloyatining Ohangaron shahrida kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan, millati o'zbek, oliy ma'lumotli huquqshunos, 1962-yilda sobiq Ittifoq Ichki ishlar vazirligining oliy maktabini tugatgan.

Bolaligi urush yillariga to'g'ri kelgan. 1946-yilda o'rta maktabni tugatgan. 1949-1951-yillarda IIVning Toshkentdagi o'rta maxsus ofitserlar tayyorlash maktabida tahsil olgan. 1951-1954-yillarda Qozog'iston Respublikasining Jezqozg'on shahrida joylashgan mehnat tarbiya kolonnasida operativ vakil lavozimida xizmat qilgan. 1954-yil avgust oyida yo'llanma bilan Surxondaryo viloyatiga kelib, Termiz shahar militsiya bo'limida BXSS katta operativ vakili lavozimida xizmat faoliyatini davom ettirgan.

1955-yilning mart-avgust oylarida Denov tuman militsiya bo'limi boshlig'ining o'rinbosari, 1957-1959-yillarda Sherobod tumani, 1959-1965-yillarda Denov tumani IIB boshlig'i bo'lib ishladi. 1965-yildan 1986-yilgacha dastlab viloyat IIB Jinoyat qidiruv boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, 1971-yildan shu boshqarma boshlig'i lavozimida faoliyat yuritib, nafaqaga chiqqan.

Polkovnik Abdusamad Bozorboyev "Mehnat faxriysi" va boshqa ko'plab ko'krak nishonlari, ikki marta Respublika Oliy Soveti Prezidiumining Faxriy Yorlig'i, Respublika IIV hamda viloyat IIBning bir qator Faxriy Yorliqlari hamda qimmatbaho sovg'alari bilan mukofotlangan. "SSSR IIV xizmat ko'rsatgan xodimi" unvoniga sazovor bo'lgan[2:43].

Ichki xizmat podpolkovnigi Shodi Mirzayev haqida so'zlaydigan bo'lsak, u 1924-yilda Termiz rayoniga qarashli Oqtosh qishlog'ida tug'ilgan, millati o'zbek, ma'lumoti o'rta maxsus, 1942-1948-yillarda Qozog'iston Respublikasida, Primorsk o'lkasida, Gorkiy shahrida oddiy soldatlikdan tortib, bo'linma komandiri darajasida harbiy xizmatda bo'lgan. 1949-yilda Termiz rayon militsiyasiga tezkor navbatchi yordamchisi bo'lib ishga kiradi. 1946-1956-yillarda viloyat ichki ishlar boshqarmasi siyosiy bo'limida katta instruktor bo'lib ishlaydi. 1956-1959-yillarda Denov va Termiz rayon IIB bo'limlarida voyaga yetmagan yoshlar bilan ish olib boruvchi inspektor va militsiya uchastka noziri kabi lavozimlarda ishlab, o'z ish tajribasini oshirdi. Shundan so'ng 1959-yilda Sherobod rayon militsiya boshlig'i vazifasiga ko'tariladi. 1961-1972-yillarda viloyat IIB davlat avtomobil nazorati xizmatini boshqardi. 1972-yilda kasalligi tufayli iste'foga chiqdi. 30 yildan oshiq militsiya ish stajiga ega edi. Bir necha medallar sohibi edi. Mahalliy Sovetlarga ko'p yil deputat bo'lib saylangan. Hozirgi kunda uning ko'plab shogirdlari ustoz, o'g'illari ota ishini davom ettirmoqdalar[6].

1961-1965-yillarda ushbu mas'uliyatli lavozimda militsiya podpolkovnigi Eshmo'min No'karov faoliyat yuritdi. Uning tashabbuskorligi va ishbilarmonligi tufayli Sherobod tumani IIB barcha sohalarda salmoqli yutuqlarga erishdi.

Eshmo'min No'karov 1926-yilning 1-yanvar kunida Sherobod tumanidagi Xatak qishloq kengashiga qarashli Laylagan qishlog'ida tug'ilgan, ma'lumoti oliy, 1966-yilda Toshkent Oliy militsiya maktabini tamomlagan. Eshmo'min No'karov qishloq maktabida 7-sinfni tamomlaydi. 1941-yilning 22-iyunida boshlangan urush tufayli o'qishini davom ettira olmagan. Kolxozda tabel yurituvchi bo'lib ishlagan. 1944-yilning yanvar oyida Ikkinchi jahon urushiga safarbar etiladi. 1-Belorussiya frontidagi Artilleriya polkining 1881 o'qchi polkida nishonga oluvchi (navodchik) bo'lib xizmat qiladi. Janglar davomida Polsha Respublikasining poytaxti Varshavani va bir qator Yevropa mamlakatlarini dushmanlardan ozod qilish uchun bo'lgan janglarda ishtirok etadi va g'alabani Elba daryosi bo'yidagi Elba shahrida qardosh AQSH, Angliya ittifoqdosh askarlari bilan birga nishonlashadi[1:82].

Eshmo'min No'karov xizmat qilgan harbiy qism 1946-yilda Germaniyadan Stalingrad (Volgograd) shahriga ko'chiriladi va dushmanlar tomonidan vayron qilingan shaharni qurilish-tiklash, og'ir sanoatni ko'chirib o'tqazish ishlariga jalb etiladi. 1950-yilda harbiy xizmatdan zahiraga bo'shatilgan Eshmo'min No'karov ona Vataniga qaytib keladi va harbiy biletni hisobga qo'yish uchun Sherobod tumani harbiy komissariatga kelganda tuman ichki ishlar bo'limi tomonidan xizmatga tavsiya etiladi va u ishga qabul qilinadi.

Boshlang'ich xizmat tayyorgarlik kursini o'tagan Eshmo'min No'karov dastlab Sho'rchi tumani IIBda uchastka inspektori vazifasida ishlaydi, 1952-1959-yillarda Sho'rchi, Angor tumani IIBlarida jinoyat qidiruv tezkor vakili sifatida faoliyat yuritadi. 1959-1972-yillarda Uzun, Sherobod, Jarqo'rg'on tumani IIBlarida boshliq bo'lib ishlab, podpolkovnik unvonida nafaqaga chiqadi.

Eshmo'min No'karov 1958-yilda Respublika ichki ishlar idoralari qurultoyida ishtirok etadi va viloyatda birinchi bo'lib "Sovet militsiyasi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlanadi.

So'ngra u uzoq yillar Jarqo'rg'on tumani IIBda "Faxriylar kengashi" raisi bo'lib ishlaydi

va yosh xodimlarga o'zining xizmat tajribalarini o'rgatib, ularni o'z ona vataniga, xalqiga sodiqlik ruhida tarbiyalashga hissa qo'shadi. Hayotlik vaqtida u kishining ko'ksini "II darajali UVU" ordeni, "Varshava ozod qilingani uchun", "Berlin olingani uchun", "Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" kabi jangovar medallar bilan birga g'alabaning 60 yilligigacha bo'lgan yubiley medallari, "I, II, III-darajali Ichki ishlar idoralaridagi benuqson xizmatlari uchun" medali "Sovet militsiyasining 50 yilligi" yubiley medali, "Militsiya a'lochisi" ko'krak nishoni hamda 2 ta "Mehnat faxriysi" medallari bezab turar edi[1:82].

1965-1968-yillarda militsiya mayori Omonniyoz Musurmonqulov tuman IIBni boshqardi. 1968-yilda onadan ayni shu kasb uchun tug'ilgandek tasavvur uyg'otuvchi, tizimdagi yuksak tajriba va mahoratini Termiz shahar ichki ishlar bo'limida xizmat qilib oshirgan, sofdil, dovyurak, adolatparvar inson, militsiya polkovniki Abduhamid Tog'aliyev[1:116] ushbu lavozimga tayinlandi.

Abduhamid Mirzayevich Tog'aliyev 1932-yil 10-mayda Termiz shahrida tug'ilgan. Oliy ma'lumotli huquqshunos, 1969-yilda IIBning Toshkent militsiya oliy maktabini tugatgan. Harbiy xizmatni o'tagan, yoshlar tashkilotida faoliyat yuritgan. 1957-1958-yillarda viloyat IIBda haydovchi, ombor mudiri vazifalarida ishladi. So'ngra viloyat IIB 1-maxsus bo'limida tezkor vakil bo'lib xizmat qildi. 1961 – 1962-yillarda Termiz tumani militsiya bo'limini boshqardi. 1963-yildan 1968-yilgacha viloyat IIB JTSB, BXSS, keyinchalik jinoyat qidiruv bo'limi katta tezkor vakili lavozimlarida faoliyat yuritdi. Sherobod tumanida roppa-rosa 11 yil boshliq sifatida mahoratini ko'rsatib ishladi. 1979-1985-yillarda dastlab Davlat avtomobil nazorati boshlig'i o'rinbosari, so'ngra boshlig'i lavozimlarida ishlab, nafaqaga chiqqan. Uning xizmatlari I-, II-, III-darajali "Benuqson xizmatlari uchun", "Jamoat tartibini saqlashdagi a'lo xizmatlari uchun", "Mehnat faxriysi", "Militsiya a'lochisi" ko'krak nishonlari, bir qator faxriy yorliqlar, rahmatnomalar bilan taqdirlangan. Qalbi pok, vijdoni sof, bag'ri keng Abduhamid Tog'aliyev yetakchiligi davrida haqiqiy ma'noda huquq-

tartibotni mustahkamlash ishlari tubdan yaxshilandi. Shaxsiy tarkibda siyosiy-tarbiyaviy ishlar saviyasi yuqori darajaga ko'tarildi. Har bir fuqaro "Mening militsiyam" iborasini zo'r hurmat va ehtirom bilan ta'kidlaydigan bo'ldilar. Keyinchalik Abduhamid Tog'aliyev rahbarligida Sherobod tumani IIB xizmat ko'lamini Turkmaniston sarhadlaridan Bandixon dashtlarigacha, Ko'hitang tog'i cho'qqilaridan Amudaryo sohillariga qadar hududlar osoyishtaligi qamrab olingan edi. O'sha paytda ham Sherobodlik huquq posbonlari cho'pon-cho'liqlarning moli-holi tugalligidan tortib, ulkan cho'l zabtkorlarining peshona teri evaziga bunyod bo'lgan hosilini yong'in xavf-xatarlarisiz, nest-nobud qilmasdan davlat tayyorlov omborlarigacha yetkazib berish mas'uliyatini o'z zimmlariga olgan edilar. Ana shuning uchun ham Abduhamid Tog'aliyevning xizmatlarini, ishni tashkillashtirish mahoratini elu xalq hamon hurmat va ehtirom bilan xotirlaydilar.

Iste'fodagi polkovnik Omon Choriyev Sherobod tuman ichki ishlar bo'limini besh yil boshqardi. U 1944-yil 10-mayda Sherobod tumanining Oqqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Ulg'ayib, armiya safida xizmat qilib qaytgach, 1964-yilda O'zbekiston Respublikasi Jamoat tartibini saqlash vazirligining (MOOP) Toshkent maxsus o'rta militsiya maktabiga o'qishga kirgan.

O'qishni tugatgach, 1966-yili JTSVning axloq tuzatish va mehnat muassalari boshqarmasining Termiz shahridagi tergov izolyatori maxsus qismiga boshliq etib tayinlandi. 1968-yil oktyabr oyidan Surxondaryo viloyati IIB pasport bo'limining katta noziri, 1970-yildan viloyat IIB axborot markazining katta noziri, 1974-yildan Jarqo'rg'on tumani IIB boshlig'ining siyosiy-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, 1976-yildan Boysun tumani IIB boshlig'ining operativ ishlar bo'yicha o'rinbosari, viloyat IIB 5-bo'limi boshlig'i lavozimlarida faoliyat yuritdi. IIV Toshkent oliy maktabida sirdan tahsil oldi. Shuningdek, u sobiq Ittifoq IIV Akademiyasida o'qidi. Sho'rchi va Denov tumanlari IIB boshlig'i bo'lib faoliyat yuritdi. Xizmat qilgan tumanlari IIB binolarining

qurilishida bosh-qosh bo'ldi, xodimlarga avvalo, samarali xizmat qilishlari uchun munosib sharoit yaratib berishga intildi. Ana shundan so'ng xodimlardan jismoniy va jangovar tayyorgarlik, kasbiy mahoratni oshirishni, xizmat sifatini yaxshilashni talab qildi. Bu tajriba o'z natijasini berdi. Boshqa joylarda ham bo'lgani kabi Sherobodda ham jinoyatchilik ko'rsatkichi keskin kamaydi, osoyishtalik barqaror bo'ldi.

Garchi Sherjonlik bo'lsada, Termiz shahrida "Cho'yan polvon" nomi bilan shuhrat qozongan militsiya podpolkovnigi Ashur Mo'minov Sherobodda IIB rahbarlik qilgan 1984-1986-yillarda shersifat qomatiga xos jasorat bilan bezorilik, o'g'rilik, jamoat mulkini talon-taroj qilish va boshqa jinoyatlarning payini qirqish borasida shijoat ko'rsatdi. 1959-yilning 26-avgust kundan 1960-yilning sentyabr oyiga qadar harbiy qismda haydovchilik qilib, yigitlik burchini ado etadi. 1963 – 1965-yillarda Toshkent o'rta maxsus militsiya maktabida o'qiydi. Bilim va tajribasini oshira borib, 1972-yilda Toshkent oliy militsiya maktabida o'qiydi. 1965-yilning 10-noyabrida, ya'ni militsiya xodimlarining kasb bayrami kunida birinchi maxsus "leytenant" unvoniga sazovor bo'ladi. Termiz shahar militsiya bo'limining jinoyat qidiruv bo'linmasi tezkor vakili, viloyat IIB jinoyat qidiruv bo'limi inspektori, katta inspektori, Sho'rchi tumani IIB jinoyat-qidiruv guruhi katta inspektori Termiz, Qiziriq, Sherobod tumanlari ichki ishlar bo'limi boshlig'i

lavozimlarida munosib va samarali faoliyat yuritib, el hurmat – e'tiboriga sazovor bo'lgan podpolkovnik Ashur Mo'minov oliy ma'lumotli, bilim doirasi keng, mahoratli huquqshunos sifatida nafaqaga chiqqandan keyin ham "O'zbekiston" davlat xo'jaligida huquqshunoslik kasbini davom ettirdi[2:45].

1986-1990-yillarda Sherobod tumani IIBni boshqargan militsiya polkovnigi Abduqodir Nurullayevning o'rni va salohiyati o'zgacha bo'ldi. Chunki u bu lavozimga chuqur bilim, mahorat va jangovarlik hissi bilan kirishdi. Tez orada Sherobodning eng ko'rkam joyida barcha zamonaviy qulayliklarga ega bo'lgan IIBning hashamdor qo'shqavatli binosi ishga tushirildi. Yarim asrdan oshiq vaqt davomida eski binoda xizmat olib borayotgan xodimlarning yangi inshootda faoliyatini davom ettirishlarining o'zgacha gashti borligi yaqqol sezilib, yangicha tartib-qoidalar yo'lga qo'yildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Sherobod tumani ichki ishlar bo'limi faoliyati tarixi va rahbar kadrlar xizmat yo'lini tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, ushbu tizim o'tgan bir asrdan ko'proq vaqt davomida mintaqada ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim tayanchi bo'lib kelgan. XX asrning turli davrlarida, ayniqsa, murakkab urush va undan keyingi tiklanish yillarida soha fidoyilari bo'lgan Abdusamad Bozorboyev, Abduhamid Tog'aliyev, Eshmo'min No'karov kabi rahbarlarning shaxsiy namunasi va yuksak intizomi tuman miqyosida jinoyatchilikka qarshi kurashning o'ziga xos maktabini yaratdi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Allayorov B.E. Surxondaryoda ichki ishlar organlarining tashkil etilishi va faoliyati (1917-1991-yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2024. – B. 165.
2. Shukurov O'. Sizda orom qayda, sizda tin qayda. – Sherobod, 2023. – B. 293.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 18-fond, 1-ro'yxat, 471-ish, 19-varaq.
4. Бобоев М. Соатов О. Сурхондарё милицияси. – Самарқанд: "Сўғдиён". 1998. – Б. 255.
5. Халқ хизматида 75 йил. Тошкент, "Ўзбекистон", 1992 йил, 52-53 бетлар.
6. Og'zaki tarix materiallari.